

**AKSIYADORLIK TIJORAT "ALOQABANK"
BAYONNOMA**

2026-yil "16" aprel

Andijon shahri

Raislik qiluvchi: AT "Aloqabank" Andijon HKXKM direktori J.G'aniyev

Ishtirok etdilar: Komplaens nazorat boshqarmasi menejeri P.Umarov.
AT "Aloqabank" Andijon HKXKM xodimlar

KUN TARTIBI:

**Bank tizimida korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni
shakllantirish, mijozlarning huquqiy savodxonligini oshirish va
noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish.**

Yig'ilishni AT "Aloqabank" Andijon HKXKM direktori J.G'aniyev ochib berdi va quyidagilarni bayon qildi:

Hurmatli bankimiz xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar! Korrupsiyaga qarshi kurash barchani vazifasi bo'lib, uni oldini olishda mijozlarning ham korrupsiyaga qarshi huquqiy savodxonligini oshirish, bank tizimidagi korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan birdam bo'lish, bank faoliyatida "halollik" va "shaffoflik" tamoyillari asosiy o'rinda turishi lozimligi, har qanday ko'rinishdagi poraxo'rlik yoki ta'magirlik qat'iyon taqiqlanganligi, bank xizmatlaridan foydalanishda xizmat haqi faqat belgilangan tariflar asosida amalga oshirilishi, xodimlarga alohida moddiy manfaatdorlik taklif qilish yoki ulardan biron-bir imtiyoz so'rash noqonuniy deb o'z so'zlarini yakunlab keyingi ma'ruzachi Parvizjon Umarovga so'z navbatini berdi.

P.Umarov:

Bankning korrupsiyaga qarshi kurash ishlari bankning Komplayens-nazorat" tizimi hodimlari tomonidan Qonun va bankning i ichki siyosati, odo-axloq qoidalari asosida olib borilishi, bank xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatish jarayonida qo'shimcha haq yoki sovg'a talab qilinishi qat'iyon man etilganligi, O'zbekiston Respublikasining ***"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"***gi Qonuniga muvofiq, pora berish ham, pora olish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi, bank xizmatlari (kredit rasmiylashtirish, hisob raqami ochish va h.k.) faqat rasmiy hujjatlar va belgilangan tariflar asosida amalga oshirilishi, navbat kutish yoki jarayonni tezlashtirish uchun "vositachilik" takliflariga uchmaslik bildirib, bank hodimlari tomonidan korrupsion holatlarga yo'l qo'yilganda bankning "**Ishonch telefoni**", rasmiy veb sayt hamda korrupsion holatlar haqida xabar berish imkonini beruvchi ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar orqali murojaat etishlari mumkinligini tushuntirdi.

Ma'ruza yakunida ishtirokchilar tomonidan ularni qiziqtirgan savollar berildi. Tinglovchilar berilgan savollarga to'liq javob olib, bank xodimlari tomonidan hozirga qadar noqonuniy talablar bo'lmaganini tasdiqlagach, AT "Aloqabank" Andijon HKXKM direktori J.G'aniyev mijozga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va ularning oqibatlarini to'liq tushuntirilganligi, kelgusida mijoz bank bilan hamkorlikda halollik tamoyiliga amal qilishga chaqirib yig'ilishni yakunladi.

Yig'ilish raisi



J.G'aniyev

Yig'ilish kotibi:

M.Sadikova